

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ISSN: 2992-8902



Digital
Object
Identifier



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIALS
NUMBER
SYSTEM-CENTRE

74-91 XALQARO DARAJA



MAXSUS SON, 2024

IJTIMOIY, IQTISODIY, SIYOSIY, ILMIY, OMMAKOP JURNAL

2024-YIL 18-19-APREL



**"RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROIQTISODIYOT VA
BUXGALTERIYA HISOBINING DOLZARB MUAMMOLARI VA
ULARNING YECHIMLARI" PROFESSOR NURILLA SULAYMONOVICH
SANAYEV TAVALLUDINING 85 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI, 2024

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 678 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 19-aprel kuni ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Benazir ustozni yod etib	10
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti jamoasi	
Qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari.....	12
Yunusov Xudaynazar Beknazarovich	
Agroklasterlarda biznes jarayonlari moliyaviy natijalari hisobini takomillashtirish	14
Alikulov Abdimo'min, Koshkaldal Irina	
Assessment of the ESG rating of banks.....	19
Ruziyeva Elvira, Eshmuradov Ulugbek	
Contract Preferences of Smallholders: Evidence From a Study on Potato Production in Uzbekistan	24
Sanaev Golib, Sanaeva Rakhima, Nurullaev Ulmasjon, Nurullaeva Bakhora, Sanaev Anvar	
Taxation Systems in the Agricultural Production Sphere in the Context of Resistance to Shadow Economy	34
Koshkaldal Iryna, Dombrovska Olena, Alikulov Abdimumin	
Factors Influencing Farmers' Cooperation in Irrigation: A Study of Samarkand Province, Uzbekistan	39
Tadjiev Abdusame Abduxamidovich	
Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalar hisobi hamda hisobotlarini takomillashtirish.....	43
Xasanov Baxodir Akramovich, Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li	
Tijorat banklarida ichki auditida muhimlik va auditor riski masalalari.....	50
Ibragimov Abdugapur Karimovich, Qo'ldoshev Dilshod Melixurozovich	
Agroklasterlar ichki sotish jarayonida transfert baholarni belgilashni tashkiliy-uslubiy jihatlari	57
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
Auditda regression tahlilni qo'llashning xususiyatlari	64
Tajekeev Ziyatdin Kobeyisovich	
Uzumchilik fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	67
Ibragimov Mansur Mardonovich	
Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish.....	71
Egamberdiyeva Salima Rayimovna	
The Place of Digitalisation in the Rural Areas Development of Ukraine.....	76
Riasnianska A. M., Kniaz O. V.	
Yalpi ichki va hududiy mahsulotning ko'payishida faol tadbirkorlikning o'rni	79
Salamov Ibroxim, Kudratov Rizo Turdibayevich, Nazarova Maryam Sharipovna	
Inflyatsion targetlash rejimining pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati	84
Fayziyev Oybek Raximovich	
Asalarichilikning qishloq xo'jaligi iqtisodiyotidagi o'rni va uni rivojlantirish istiqbollari.....	89
Alikulov Abdimo'min Ismatovich, Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich	
Uzumchilik majmuining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning tamoyillari.....	94
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Mintaqaviy klasterning xususiyatlari.....	98
Urdushev Hamrakul	
Considerations for Bolstering Entrepreneurship in the Evolution of the Domestic Economy	102
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna	
Chorvachilik tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	107
Kudratov Rizo Turdibayevich, O'roqov Feruz Ibodullayevich	
Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hududiy jihatlari	112
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Nazarova Maryam Sharipovna	



Yalpi ichki mahsulot va uni hisoblashni takomillashtirish yo'llari.....	117
Xalmurzaev Mansur, Abdushukurov Xondamir	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida tovar-moddiy qiymatliklar hisobini takomillashtirish yo'nalishlari.....	122
Raximova Umida Rabbimovna	
Mamlakatimiz agrar tarmog'ida innovatsiyalarga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirish.....	127
Olimova Nodira hamrakulovna	
Banklarda ichki auditni xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish.....	131
Rizayev Nurbek Qodirovich, Boymatova Chinora Ilxomovna	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	137
Alikulov Abdimo'min Ismatovich, Ibodullaev D., Abdushukurov Xondamir Botiraliyevich	
Davlat budjetida boshqaruv xarajatlarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari va xarajatlarining optimallashtiruv muammolari.....	142
Narziyeva Guzal Baxtiyorovna	
Bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishni yuzaga keltiruvchi sabablar hamda ularning yechimi.....	146
Ahmatova Qunduzbonu Asliddinovna, Sunnatullayev Musurmon Sunnatullo o'g'li, Salamov Ibroxim	
Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot muammolari	151
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Musurmonov Nodirbek Ahmadovich	
Menejer boshqaruvida boshqaruv mehnati va guruhlar dinamikasi	155
Xasanova Sitara Islamovna	
G'allachilik klasterlarida buxgalteriya hisobi shakllarini takomillashtirish.....	158
Yuldashev Sherali Xaitovich	
Современность услуг агропромышленного комплекса в условиях инновационной экономики положение дел	163
Тураев Баходир Хатамович, Рузиев Хамрокул Жураевич	
Влияние внешних факторов на эффективность производства животноводства.....	170
Хамдамова Насиба Аблакуловна	
Banklarda ichki auditni rejalashtirish masalalari.....	173
Ibragimova Iroda Rashid qizi, Safarov Abdumajit Abdixamidovich	
The Importance of Digital Technologies in the Development of Agriculture.....	179
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solish shakli sifatida.....	182
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna, Javmanov Jamshed Abdusamatovich	
O'zbekiston pensiya tizimida pensiya hisoblash va to'lashni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini uyg'unlashtirish.....	186
Xasanov Baxodir Akramovich, Nurmanov Din-Axmed Tileubayevich	
Uzumchilik mahsulotlari eksportini oshirish omillari	193
Ibragimov Mansur Mardonovich	
Korxonalarning xo'jalik faoliyati hisobining mohiyati, ahamiyati va hisob turlari.....	196
Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich, Tilabov Shohruh Baxriddin o'g'li, Irisboyev Raxmatilla Shavkat o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotning o'zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari	200
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Abdullayev Sanjar Sayfiddin o'g'li, Sunnatullayev Musurmon Sunnatulla o'g'li	
Fermer xo'jaliklar faoliyatida investitsiyalarning o'rni.....	204
Nomozova Mahliyo Mamirjon qizi, Yuldashev Muhammad Utkir o'g'li, Solijonova Diyora Xaydarali qizi, Saydullayev Akbarali Akram o'g'li, Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Raqamli iqtisodiyotning o'rni va joriy etishdagi imkoniyatlari.....	209
Salamov Ibroxim, Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Ummatov Begzod Ikrom ugli, Bekpolatov Sultonxon Sherzod ugli	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda asosiy vositalarni hisobga olishni takomillashtirish.....	214
Xatamov Kobil Xayriyevich, Sodiqov Xayrulla Sattorovich	
Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms	218
Abdimumin Alikulov, Ulugbek Eshmuradov, Khondamir Abdushukurov	



Servis korxonalarini raqamli iqtisodiyotga o'tkazishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	224
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi holati.....	228
Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Eshimova Gulandom Botir qizi, Daniyarov Xurshid Baxtiyarovich	
Qoramolchilikda ozuqa ta'minotini yaxshilash yo'llari	233
Nurullayev Ulug'bek Uytalovich, Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida faol tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni	236
Ibroxim Salomov, Roziyeva Gulxayo Chorievna	
Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	242
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Isaxonov Shaxzodjon Nurali o'g'li	
O'zbekiston chorvachiligidagi muammolar va ularning yechimi.....	246
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Esirgapov Diyor Akramovich, Ulmasov Tohir Suvonqulovich	
Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	249
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Ulmasov Amirxon Rasul o'g'li, Botirov Bekzod Ulug'bek o'g'li	
Механизмы и инструменты финансирования малых и средних сельскохозяйственных предприятий (На примере Центральноазиатского региона).....	253
Худойбердиева Асила	
Agroklastarlarda kapital qo'yilmalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.....	259
Irisboyev Rahmatillo Shavkat o'g'li, Jo'rayeva Diyora Olimjonovna, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rolini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	265
Saidxonov Akmalxon	
Improving Accounting and Auditing of Inventories in Agricultural Clusters	269
Raximova Umida Rabbimovna	
Maishiy xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalari va kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni.....	272
Rajabov Navruzbek Azimjonovich	
Chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniytlari	277
Salomov Ibroxim, Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Hotamov Adhamjon Asqarjon o'g'li	
Порядок применения и актуальность международных стандартов финансовой отчетности в деятельности коммерческих банков и предприятий	282
Нарзиева Гузал Бахтиёровна, Хомидов Асилбек Отабек угли, Асомиддинов Хусан Асомиддин угли, Болтабаев Диёрбек Омондурди угли	
Savdo korxonalarida segmentar hisobning o'rni va ahamiyati	286
Mardonov Mamed Shavkatovich, Bobomuradova Sarvinov Ziyadullayevna	
Livestock Development Problems and Prospects in Uzbekistan	289
Khamdamova Nasiba Ablakulovna, Ulmasova Oyul Bakhtiyarovna, Xudayberdiyeva Marifat Umarovna	
Понятие и учет капитальных вложений в агрокластерах.....	292
Жураева Диёра Олимджановна	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion modernizatsiyalashda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash metodini takomillashtirish	297
Kurbanova Raxima Jamshedovna, Umurzoqova Sevinch Karim qizi	
Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi	301
Nazarova Maryam Sharipovna, Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
Maishiy xizmatlar sohasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati	304
Quliyev Begimqul Melikovich	
O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish uchun barqaror investitsiya muhitini ta'minlash masalalari.....	308
Raximova Umida Rabbimovna, Elmurodova Dilnoza Farxodovna	



Biznesni qo'llab-quvvatlashda iqtisodiy-ijtimoiy holatni yaxshilash imkoniyatlari	311
Salamov Ibroxim, Janibekov Faxriddin Beknazarovich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xudayberdiyeva Marifat Umarovna	
G'alla urug'chiligidagi boshlang'ich hisob va ichki nazoratni takomillashtirish	315
Yuldashev Sherali Xaitovich, Yusupov Uchqun, Zokirov Behruz	
Baliqchilik xo'jaliklarini rejalashtirishning ahamiyati va bosqichlari	318
Dosmuratova Shaxista Kengashovna	
"Yashil" iqtisodiyot: konsepsiyaning shakllanishi va asosiy kategoriyalari	321
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Toshpulatova Kamola Xurshed qizi	
Sutchilik yo'nalishidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida marketing elementlaridan foydalanish	324
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Biznes jarayonlarida "xarajat" va "tannarx" kategoriyalarining nazariy jihatlarini	328
Xondamir Abdushukurov, Ulug'bek Eshmuradov	
Перспективы развития бухгалтерского учета и аудита на основе международных стандартов	333
Рахимова Умида Раббимовна, Асомиддинов Хусан Асомиддин угли, Болтабаев Диёрбек Омондурди угли, Хомидов Аслбек Отабек угли	
Asosiy vositalarni hisobga olishning xalqaro va milliy standartlarda aks ettirishning farqli jihatlarini	336
Xatamov Kobil Xayriyevich, Turabaeva Ozoda Ilxambekovna	
Qishloq hududlarida ekoturizm maskanlarining turistik salohiyati va sig'imi tahlili	340
Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi, Xoshimova Sevara Bahromovna, Sayfullaev Umidulla Fazliddin o'g'li	
Chorvachilik tarmoqlarida otchilik infratuzilmasining hozirgi holati va istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	346
Salamov Ibroxim, Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Tursunov Alpomish Amanovich, Yo'ldoshev Raxim Nuriddin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi klasterlari va fermer xo'jaliklari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	351
Nasimjon Babayev, Dilorom Yorbekova, Umidullo Fayzullayev	
Agroklasterlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish	354
Abdunazarova Sevinch, Aliqulova Zebuniso, Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligi	360
Kudratov Rizo Turdibayevich, Abduxaliqova Farangiz Abduxoliq qizi	
Increasing Efficiency of Catering Enterprises Through Modernization	365
Kurbanova Rakhima Jamshedovna	
Chorvachilik majmuasi infratuzilmasi va uni rivojlantirish	369
Nurmanov Sherzod Xujayarovich, Aslonov Xotamjon Sharibboy o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati	373
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Raxmatullayev Sherzod Mexriddinovich	
Studying the Features of Innovative Development in The Agricultural Sector of the Economy	377
Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna	
Chorvachilikda klasterlashning ayrim masalalari	380
Urdushev Hamrakul, Mavliyanov Majid Tuychiyevich	
Issues of Development of "Green Economy" in the Context of the Actualization of the Problem of Ecology and Climate Change	385
Mukhayyo Dustova	
Xizmatlar sohasi rivojlanishining aholi turmush darajasiga ta'siri	390
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna	
Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish prognozini ishlab chiqish masalalari	393
Dosmuratova Shaxista Kengashovna	
Mahalliy soliqlar va mahalliy yig'imlarning iqtisodiy mohiyati	396
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li	
Turizm korxonalari hisob siyosatini shakllantirish	400
Ibragimov Mansur Mardonovich	



Korxonalarda moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili	404
Isturdiyev Hasan Abdigapparovich, Tilabov Shohruh Baxriddin o'g'li, Yusupova Ergashoy	
Innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot atamalarining mohiyati va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	408
Xudoyberdiyeva Marifat Umarovna, Boyjigitov Kamronmirzo Sobirjon o'g'li, Obloberdiyev Shuxrat Sharof o'g'li	
The Processing Indicators of Livestock Products on the Basis of Economic Statistical Models	411
Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna, Hotamov Adhamjon Asqarjon o'g'li	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida tola ishlab chiqarish xarajatlari tahlili	414
Alikulov Abdimo'min Ismatovich, Farangiz Rustamova	
Meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda klaster yondashuvining afzalliklari	419
Eshankulov Sirojiddin Xakimovich	
Prospects for Leaving the Population Out of Poverty	424
Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Radjabov Navruzbek Azimjonovich, Uralov Baxtiyor Maxmudovich, Fayzullayev Umidullo Xayrullo o'g'li	
Tijorat banklarida korrupsiyaga qarshi kurashishning kompayens nazorati usullarini takomillashtirish.....	429
Sultonov Abrorbek Umarali o'g'li, Axmedov Shuxrat Xikmatullayevich	
Segmentar va moliyaviy hisobot tuzishda xo'jalik yurituvchi subyektlar mulkini baholashning metodologik muammolari	435
G'olibjon Alikulov	
Raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali yashirin iqtisodiyotni jamiyatga ta'sirini kamaytirish	439
Uralov Baxtiyor Maxmudovich, Abdusalomov Farruh G'ayrat o'g'li	
Sustainable Farming Futures: the Economic Need of Climate Change Program in Uzbekistan.....	443
Akhmadjon Nurullaev, Sanayeva Raxima Amirqulovna, Visola Khasanova, Bakhora Nurullaeva, Anvar Sanaev	
Problems and Prospects of Cadastral Valuation of Land Resources in the Republic of Kazakhstan	447
Berdimurat Nazimgul, Bassybekova Zh.B.	
Значение цифровизации в сельском хозяйстве	451
Сыздықова Азиза Оралбайқызы, Сапарова Айнура Алпамысовна	
Xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish masalalari	456
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich, Mardanova Mohidil Otabek qizi, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich	
Aholini o'z-o'zini bandlikka jalb qilish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish.....	461
Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Jo'rayev Sherali Anor o'g'li	
Innovatsiyani joriy qilishning fermer xo'jaliklari daromadlariga ta'siri	465
Eshboyev Diyorbek Yo'ldosh o'g'li, Sinayev Sherali Islom o'g'li, Ismoyilov Azamat Isroyilovich	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq daromadni tan olish masalalari.....	471
Kozimjonov Abrorbek	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning yutuqlari va muammolari.....	475
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi	
Soliq ma'murchiligida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va uning ilmiy-nazariy asoslari tahlili	479
Uralov Baxtiyor Maxmudovich, Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Holmirzayev Sardor Ravshan o'g'li, Tursinaliyev Abdulaziz Shokirjon o'g'li	
O'zbekistonda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlanishi: xronologik tahlil.....	484
Hasanov Habibullo	
Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi.....	488
Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Tirkashev Farxod Mahmudovich, Sayfullayev Akbar Xoljigit o'g'li, Erkinov Samandar Maxmudovich	
O'zbekiston chorvachiligiga oid FAO ma'lumotlari haqida	493
Pardayeva Kamola	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq xaridorlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida tushumni hisobga olishning ahamiyati	498
Norbekov Davron	
Paxtachilik klasterlarida ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	502
Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Abduraxmonov Orifbek Odiljon o'g'li	



Raqamli iqtisodiyotning zamonamizdagi bugungi o'rne	506
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Zarmaxmatov Nomojjon Baxodir o'g'li	
Improving Cost Audit in Innovation Activities	510
Mustafoev is the son of Akbar Mustafa	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni mxs asosida transformatsiya qilish zaruriyati	514
Xolmurodov Otabek	
Klasterlarni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rne	521
Javmanov Jamshed Abdusamatovich, Homidov Aslbek Otabek o'g'li, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li, Boltayev Diyorbek Omondurdi o'g'li	
Soliq imtiyozlarini nazariy asoslash va huquqiy tartibga solish	526
Uralov Baxtiyor Maxmudovich	
Sug'urta shartnomalari va sug'urta majburiyatlari hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	531
Ochilov Ilyos Keldiyorovich	
Обеспечение привлекательности инвестиции коммерческих банков	537
Назаров Килич Холмурадович, Нафасов Шохрухбек Хошимович	
O'zbekistonda tashqi savdoning rivojlanishi va muammolari	539
Xudayberdiyev U.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnatga haq to'lashning nazariy jihatdan tashkiliy-iqtisodiy asoslari	542
Rajabov Navruzбек Azimjonovich, Toshmurodova Dilbar Muzaffar qizi	
Human Capital in Education	546
Ibragimov Mansur Mardonovich, Ergashev Olloyor	
Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda o'zini o'zi band qilish orqali ishsizlikni kamaytirishning nazariy asoslari	551
Jo'rayev Sherali Anor o'g'li, Abdikarimov Nazirbek Odil o'g'li, Uralov Baxtiyor Maxmudovich	
Uchqora uzumi-mayizini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari	555
Salamov Ibroxim, Kudratov Rizo Turdibayevich, Janibekov Faxriddin Beknazarovich	
Moliyaviy natijalarning tavsifini takomillashtirish	561
Yusupova Farizabonu Zarifovna	
Kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari	564
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Do'stiyorov Mirabbos Erkin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi turmush darajasini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati	568
Xolmurodov Otabek	
O'zbekistonda aholi turmush darajasi va daromadlarining o'ziga xos xususiyatlari	570
Rajabov Navruzбек Azimjonovich, Uralov Baxtiyor Maxmudovich, Saidmurodov Sardor Mirsalohovich	
SWOT-анализ конкурентоспособности национального туризма в Узбекистане в условиях преодоления последствий пандемии	574
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Abduzoirov Sarvarbek	
Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ahamiyati	577
Salamov Ibroxim, Kudratov Rizo Turdibayevich, hamdamova Nasiba Ablakulovna	
Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo munosabatlari	582
Tirkashev Farhod Mahmudovich, Xo'jaqulov Inomjon Rustam o'g'li	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitiga mos rivojlantirishning ayrim masalalari	586
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich, Sherzodova Diyora Sherzod qizi	
Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish orqali turistik zonalarini takomillashtirish	589
Raxmonov Siyovush Turob ug'li, Ochilova Mohigul Toshtemir qizi	
Ivermektin, klozantel, iversantapulus dori vositalarining marketing tahlili	592
Raxmadullayev Humoyun Rashid o'g'li, Farmonov Nizom, Salamov Ibroxim	
Цифровая оптимизация для экологической безопасности в агропромышленном комплексе	597
Юнусов Худайназар Бекназарович, Сафарова Лола Улмасовна	



Смысловой – системный анализ процессов обработки плодов и овощей энергии начального импульса.....	602
Курбанов Жамшед Маджидович, Курбонова Мадина Жамшедовна	
Формирования алгоритма расчета эффективности транспортно-логистической системы поставок грузов.....	605
Кубаев Улугбек	
Роль и потенциал севооборота в создании устойчивых и экологически чистых систем в сельском хозяйстве на основе цифровизации	611
Юнусов Худайназар Бекназарович, Сафарова Лола Улмасовна	
Qoramollar uchun ozuqa ratsionini tuzishda innovatsion yondashuv	617
Mavlyanov Majid Tuychiyevich	
Landshaft bog'dorchilikni rivojlantirishda autocad dasturining o'rni.....	624
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich, Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich	
Aniq qishloq xo'jaligida o'zgaruvchan me'yorlarni qo'llash	628
Akbarov Husan O'zbekxonovich, Bekzod Qudratov	
Raqamli iqtisodiyotda neyron tarmoqlaridan foydalanishning ahamiyati.....	634
Otoboyeva Aziza Shakirovna	
Iqtisodiy masalalarni tahlil qilish, me'yorlash, rejalashtirish, baholash hamda bashorat qilishda korrelyatsiya va regressiya usuli	637
Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida O'ktam qizi	
Iqtisodiy ekonometrik modelni tuzish hamda avtokorrelyatsiya mavjudligini aniqlash	641
Raximov Abdulaxad Nematovich	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda agrovoltaika texnologiyasini qo'llash istiqbollari	646
Berdiyev G'ayrat Ibragimovich, Eshpulatov Dostonbek Baxodir o'g'li, Malikova Sevinch Telman qizi	
Развитие системы цифровизации в сельском хозяйстве и в народной медицине	650
Рахмонов Фариз Зафаржонович, Мухиддинова Сабрина Мунисовна, Усманова Лайло Рахматуллаевна, Рахмонова Хабиба Нуруллаевна	
Raqamli iqtisodiyot fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va virtual onlayn kurslardan foydalanish.....	653
Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich	
Qishloq xo'jaligini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	656
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Ekin maydonlari tuproqlarini tahlil qilish va boshqarishda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning o'rni..	660
Otoboyeva Aziza Shakirovna, Artikov Farxod Sayfiddinovich, Usanov Yoqub Dilmurod o'g'li	
О некоторых нестандартных способах решения иррациональных уравнений	664
Актамова Василя Уктамовна	
Корхоналарни тугатишнинг норматив ва ташкилий-услугий таъминотини такомиллаштириш	666
Дусмуратов Раджапбай Давлатбаевич	
Юридик шахсларни тугатишнинг норматив-ҳуқуқий таъминоти.....	670
Давлетов Икрам Рахимберганович	
Саноат корхоналарида мулкый муносабатларни тартибга солишнинг илмий назарий асослари.....	674
Бобобеков Эргаш Абдумаликович	



QISHLOQ HUDUDLARIDA EKOTURIZM MASKANLARINING TURISTIK SALOHIYATI VA SIG'IMI TAHLILI

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası” dotsent v.b, (PhD)

Xoshimova Sevara Bahromovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası” assistenti

Sayfullaev Umidulla Fazliddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi

Annotatsiya: Ekoturizm hozirgi kunda dunyo iqtisodchilari tomonidan juda katta qiziqishga ega bo'layotgan sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Shuning uchun bu sohani o'rganishda bir qancha usullardan foydalanilmoqda. Ekoturizm maskanlarining turistlarni qabul qilish sig'imini aniqlash orqali tartibga solish hududda ekotizimga putur yetkazish, uning sifatining pasayishini, ekologik muhitning jozibadorligining yomonlashuvini hamda estetik qiymatini pasayishining oldini olishga va shu orqali ularning iqtisodiy qiymatini oshirish borasidagi tahlillar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, turistlar, muhofaza etiladigan hududlar, turistlar sig'imi, maqbul sig'im, potensial sig'im, asosiy sig'im.

Abstract: Ecotourism has become one of the areas of great interest among world economists. Therefore, several methods are used to study this area. By determining the capabilities of ecotourism objects to receive tourists, analyzes were carried out to prevent damage to the ecosystem in the regulated territory, reducing its quality, deteriorating the attractiveness of the ecological environment, reducing its aesthetic value, thereby increasing their economic value.

Key words: Ecotourism, tourists, protected areas, tourism potential, acceptable potential, potential potential, basic potential.

Аннотация: Экотуризм стал одной из сфер, вызывающих большой интерес среди мировых экономистов. Поэтому для изучения этой области используют несколько методов. Путем определения возможностей объектов экотуризма по приему туристов были проведены анализы по предотвращению нанесения ущерба экосистеме на территории регулирования, снижения ее качества, ухудшения привлекательности экологической среды, снижения ее эстетической ценности, тем самым повышая их экономическая ценность.

Ключевые слова: Экотуризм, туристы, охраняемые территории, туристический потенциал, приемлемый потенциал, потенциальный потенциал, базовый потенциал.

KIRISH

Ekoturistlar atrof-muhitga turli xil salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki insonning ekologik hududlarga aralashuvining kuchayishi mavjud ekologik jarayonlarning qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishiga olib keladi, bu tabiiy resurslarning yemirilishi, o'simlik populatsiyasi va yashash joylarining kengayishi, o'rmonlarning kesilishi va yuqori suv oqimlarining qisqarishida aks etishi mumkin. Sayyohlar sonining ko'pligi ekoturizm zonasida atrof-muhit ekotizimining buzilishini keltirib chiqaradi va uning sifatining pasayishiga, shovqinning ortishiga yoki ifloslanishni keltirib chiqaradi va ekoturizm muhitining jozibadorligi yomonlashadi, estetik qiymati pasayadi.



TADQIQOT METADALOGIYASI

Jahon sayyohlik tashkiloti tomonidan “Turizmning maksimal sig‘imi” deganda “bir vaqtning o‘zida jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy muhitga putur yetkazmasdan va turizm sifatining yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan pasayishiga olib kelmasdan sayyohlik yo‘nalishiga tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan odamlarning maksimal soni” [3] deb ta’riflanadi. Middleton va Hawkins Chamberlain buni “hudud yomonlashmasdan, yashovchi jamoaga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan yoki tashrif buyuruvchilar soni pasaymasdan turib, hududda joylashishi mumkin bo‘lgan inson faoliyati darajasi” [1] deb ta’riflagan. Maksimal sig‘im – bu tashrif buyuruvchilar soni natijasida obyekt yoki diqqatga sazovor joylarda noqulay vaziyatlar yuzaga kela boshlagan nuqta.

Turizmda maksimal sig‘imning bir qancha turli shakllari mavjud, bular:

- **Jismoniy maksimal sig‘im.** Bu mintaqa aslida qabul qilishga qodir bo‘lgan sayyohlarning maksimal soni. Odatda bu kishi boshiga 1 m² atrofida deb hisoblanadi. “Kunlik jismoniy maksimal sig‘im (PCC) = maydon (m²) x tashrif buyuruvchilar uchun maydon (m²) x kunlik faoliyat davomiyligi (soat)” [1].
- **Iqtisodiy maksimal sig‘im.** Bu turistik destinatsiyaning mahalliy iqtisodiyotidagi maqbul o‘zgarishlar darajasiga taalluqlidir, bu turistik yo‘nalish mahalliy faoliyatni yo‘qotmasdan turistik funksiyalarni o‘rnatishga qodirligi, tadbirkorlik faoliyati uchun ajratiladigan joylar ham hisobga olinadi bu ko‘rsatkichda. Iqtisodiy maksimal sig‘im turizmni rivojlantirish natijasida olingan daromadlarning turizm tufayli kelib chiqqan inflyatsiya tomonidan ortda qoladigan nuqtasini tasvirlash uchun ham ishlatilishi mumkin.
- **Ijtimoiy maksimal sig‘im.** Bu turizm rivojlanishi bilan bog‘liq salbiy ijtimoiy-madaniy ta’sirlar bilan bog‘liq. Ijtimoiy maksimal sig‘im qachon oshib ketganligining ko‘rsatkichlari Doksi indeksida tavsiflanganidek, hududdagi turizmni mahalliy aholi qabul qilishi pasayishi hisoblanadi. Mehmonlarning zavqlanishining kamayishi va jinoyatchilikning kuchayishi ham ijtimoiy o‘tkazish qobiliyati oshib ketganligining ko‘rsatkichidir.
- **Biofizik maksimal sig‘im.** Bu tabiiy muhitning turistlarning aralashuviga qanchalik bardosh bera olishiga bog‘liq. Ayrim ekologik resurslar qayta tiklanishga qodir, ammo maksimal sig‘imi yashash muhitining qayta tiklanish qobiliyatidan oshib ketsa, katta zararga olib keladi. Atrof-muhitning maksimal sig‘imi ekologik va jismoniy parametrlarga, resurslar, ekotizimlar va infratuzilma imkoniyatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Tahlil va natijalar. Maksimal sig‘imni aniqlashning zaif tomonlaridan biri amaliy darajada, tashrif buyuruvchilarning maksimal sonini hisoblash qiyin, chunki bu sayyohlarning o‘zini tutish uslubiga ham bog‘liq.

Joyning ekoturizmga yaroqliligini baholash ekoturizm hududini uning yaroqliligiga qarab optimal tarzda tartibga solish va boshqarish, ekoturizm faoliyatining ta’sirini minimallashtirish va rehabilitatsiya samaradorligini yaratish, saqlash, himoya qilish va tabiiy resurslarni saqlashni rejalashtirish uchun ma’lumot yig‘ish va uni o‘rganish talab etiladi, bundan tashqari, obyektning sig‘imini aniqlashni amalga oshirish uchun samarali rejalashtirish va rivojlantirish siyosati zarur.

Ekoturistlarni qabul qilish sig‘imi yovvoyi tabiatni boshqarishda foydali tushuncha bo‘lib, ekoturizm hududiga qancha ekoturist tashrif buyurishi mumkinligini aniqlab beradi.


Turizmda turistlar sig‘imini baholash 1992-yilda Cifuentes tomonidan taklif qilingan usulga asoslanadi, bunda turistik sig‘im faoliyat sohasiga, shuningdek, har bir yo‘nalishdagi turizm faoliyati davriga asoslanadi.

1-jadval: Ekoturizm xizmatlari bo‘yicha standart hududlar

№	Ekoturizm xizmatlari turlari	1 kishi uchun standart hudud (m ²)
1.	Suzish	100
2.	Plyaj	50
3.	Sayr qilish	1000
4.	Sharshara	50
5.	G‘or	20
6.	Madaniyatni o‘rganish	25
7.	Baliq ovi	50

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishingiz mumkinki, 1 kishi uchun suzishga 100 m², plyajlarda yoki dengiz bo‘ylarida dam olish uchun 50 m², sayr qilish yoki maxsus narsalarni (o‘simliklarni o‘rganish, hayvonlarni tomosha qilish tomosha qilish uchun 30 m², sharsharani tomosha qilish uchun 50 m², g‘orlarni tomosha qilish, o‘rganish uchun 20 m², xalqlar madaniyati tarixini o‘rganish, ko‘rish uchun 25 m², baliq ovlash uchun esa 50 m² maydon talabi qo‘yilgan.

Umuman olganda, turistlar sig'imini hisoblash uchun to'rt bosqich mavjud. Ushbu usulni qo'llash uchun turistik oqimlarni, hududning kattaligini, har bir turistning erkin harakatlanishi uchun mavjud bo'lgan optimal maydonni va tashrif buyurish vaqtini hisobga olish muhimdir. Biz tadqiqotlarimiz davomida "Zarafshon milliy bog'i" da maksimal tashrif buyurishi mumkin bo'lgan turistlar sig'imini hisoblab chiqdik. Ushbu tadqiqot usuli 1-rasmda qisqacha tavsiflangan.



1-rasm: Turizm sig'imi metodi asosi

Ekoturistik hududning turistlarni qabul qilishda quyidagi ko'rsatkichlar muhim hisoblanadi:

- **Faoliyat uchun standart hudud talabi.** Muayyan turizm faoliyati uchun standart maydon talabi mavjud. Standart maydon atrof-muhitning muayyan faoliyat turlariga, shu jumladan, turizm faoliyatiga bo'lgan ehtiyojiga asoslanadi. Standart maydonni hisoblashda har bir turizm faoliyati uchun maxsus tenglama qo'llaniladi
- **Har bir faoliyat uchun maydon.** Har bir faoliyat maydoni – bu har bir yo'nalishda turistik faoliyatni amalga oshirish uchun haqiqiy maydon (m²). Bundan tashqari, ma'lumotlar barcha yo'nalishlarga to'g'ridan to'g'ri kuzatishdan kelib chiqadi.
- **Faoliyat uchun o'rtacha vaqt.** Harakat uchun o'rtacha mavjud vaqt har bir yo'nalish bo'yicha kuniga o'rtacha qancha vaqt davomida xizmat ko'rsatilishi hisoblanadi (soat). Ushbu ma'lumotlar har bir turistik faoliyat davomiylik shartlariga asoslanadi.
- **O'rtacha tashrif vaqti.** O'rtacha tashrif vaqti – bu har bir yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirish uchun sarflanadigan o'rtacha vaqt (soat). Bu, shuningdek, sayyohlarning har bir yo'nalishda qancha vaqt davomida muayyan faoliyat bilan shug'ullanishini bevosita kuzatishga asoslanadi.

Bularni aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Aylanish koeffitsiyenti (RC). RC – turistik faoliyatni amalga oshirish uchun o'rtacha sayyohlik vaqtini kuniga turistik faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud vaqt bilan taqqoslaydigan koeffitsiyent.

$$RC = \frac{\text{Faoliyat uchun mavjud vaqt}}{\text{o'rtacha tashrif vaqti}} \quad (5)$$

1-cheklovchi omil: yil davomida faoliyat davomiyligi koeffitsiyenti (Lf1). Yil davomida mavsumiylik sababli yuzaga kelgan.



$$Lf1 = \frac{(100 - ((yomon\ ob\ havo\ kunlari \div 365) \times 100))}{100} \quad (6)$$

2-cheklovchi omil: Kunlik faoliyat davomiyligi koeffitsiyenti (Lf2)

Belgilangan manzilning kuniga faoliyat yuritish vaqtini hisobga oladigan koeffitsiyent

$$Lf2 = \frac{(100 - ((faoliyat\ soati \div 24) \times 100))}{100} \quad (7)$$

Asosiy maksimal sig'im (BCC). BCC – bu sayyohlar tomonidan belgilangan faoliyat turlari bo'yicha hududni standart hudud talablari bilan taqqoslash.

$$BCC = \frac{Har\ bir\ faoliyat\ uchun\ maydon}{Standart\ maydon} \quad (8)$$

Potensial maksimal sig'im (PCC). PCC – bu faoliyat vaqtini hisobga olmagan holda, ma'lum bir hududdagi potentsial turistlarni qabul qilish sig'imini qabul qilish qobiliyatining qiymati. PCC ni hisoblashda RC koeffitsiyenti va BCC natijasi hisobga olinadi.


$$PCC = BCC \times RC \quad (9)$$

Haqiqiy maksimal sig'imi (RCC)

RCC – turistik bahoning aniq qiymati. RCC – ish vaqti va yomon ob-havo sharoiti kabi faoliyat vaqtini hisobga oladigan PCC qiymatini ham o'z ichiga oladi. RCC qiymati faoliyatni amalga oshirish uchun belgilangan hududdan ruxsat etilgan sayyohlarning maksimal sonini aks ettiradi. RCC qiymati bir kun yoki bir yil uchun hisoblanishi mumkin.

$$RCC = PCC \times Lf1 \times Lf2 \quad (10)$$

“Zarafshon milliy bog'i” da tashkil etilgandan boshlab hozirgi kunga qadar faqat hayvonlarni tomosha qilish, ovqatlantirish, o'simliklarni o'rganish, manzarali joyda sayr qilish kabi xizmat turlari taklif etilgan. “Zarafshon milliy bog'i” da tashkil etilgan ekomarshrutlardan kelib chiqqan holda bo'g'ga kelgan turistlar soni o'rganildi.



2-rasm: “Zarafshon milliy bog'i” ga 2019-2021-yillarda tashrif buyurgan turistlar

Bu ekoturistlardan tushgan daromad taqsimoti quyidagicha:

2-jadval: Zarafshon milliy bog'iga 2019-2021-yillarda tashrif buyurgan ekoturistlardan tushgan pul mablag'lari (ming so'm)

№	Tashrif buyuruvchilar	2019	2020	2021	2021-yilda 2019-yilga nisbatan oʻzgarishi	
1	Oʻquvchi va talabalar	1175	2650	5088,87	3913,87	4,3 marta oshgan
2	Jismoniy va yuridik shaxslar	2005	1932	19139,5	17134,5	9,5 marta oshgan
	Jami	3180	4582	24228,37	21048,37	7,6 marta oshgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2021-yilda ekoturistlar sonining oshishi evaziga 2019-yilga nisbatan turistlardan tushgan daromad 7,61 martaga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2020-yilda ekoturistlarning kamayib ketishining asosiy sababi bu butun dunyoda tarqalgan COVID-2019 virusi hisoblanadi. Bu kasallikning



ta'sirida yuzaga kelgan karantin choralari evaziga bog'ga kirish taqiqlandi va o'z-o'zidan tashrif buyuruvchilar soni kamayib, daromad ham pasayib ketishiga olib keldi. Bu daromad asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 13-sonli "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bo'lishni tartibga solishning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorning 3-bandida keltirilgandek, METH da bo'lish uchun to'lov har bir tashrif buyuruvchi uchun sutkasiga bazaviy hisoblash miqdorining 5 % i miqdorida amalga oshiriladi degan qismi evaziga shakllangan. Bundan tashqari, Zarafshon milliy bog'ida daromad keltiruvchi yana bir tarmoq qishloq xo'jaligi bo'lib, bog'da jami xo'jalik faoliyati uchun 302 ga yer mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligida foydalanilgan ekin maydonlaridan 2021-yilda 2117,9 mln. so'm daromad olingan.

Shuning uchun biz Zarafshon milliy bog'ida sayr qilish, manzaralarni tomosha qilish xizmat turi bo'yicha tahlil qilamiz. Quyidagi 3-jadvalda Zarafshon milliy bog'ida turistlarni maksimal qabul qilish sig'imini aniqlash uchun aylanish koeffitsiyenti hisoblangan.

3-jadval: "Zarafshon milliy bog'i" uchun aylanish koeffitsiyentini hisoblash (RC)

No	Turistik xizmat ko'rsatish turlari	Kunlik faoliyat uchun mavjud vaqt	O'rtacha sayyohlik vaqti (soat)	Aylanish koeffitsiyenti (RC)
1.	Sayr qilish, manzaralarni tomosha qilish	8	3	2,66

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Zarafshon milliy bog'i" ning bir kunlik ish soati 8 soatni, o'rtacha 1 ta turistning bog'da qolish vaqti 3 soatni tashkil etgan. Bundan kelib chiqib turistlar qabul qilish sig'imi uchun aylanish koeffitsiyenti 2,66 ni tashkil etgan.

Cheklovchi omil (Lf1 va Lf2) – bu har bir turistik faoliyatda yiliga yomon ob-havo va ish soatlarini hisobga oladigan koeffitsiyent. 1-cheklovchi omil (Lf1) bir yildagi ob-havoning noqulay kelgan kunlarining sonini hisobga oladi. 2-cheklovchi omil (Lf2) bir kundagi ish soatlarini hisobga oladi.

4-jadval: "Zarafshon milliy bog'i" uchun cheklovchi omil(Lf1 va Lf2) lar tahlili

No	Turistik xizmat ko'rsatish turlari	Birlik	Lf1	Lf2
			Yomon ob-havo Kun/yil	Faoliyati Soat/kun
1	Sayr qilish, manzaralarni tomosha qilish	Kunlar/soatlar soni	120	8
		Izohlar	4 oy	8 00 dan 1600 gacha
		Koeffitsiyent	0,671	0,666

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki "Zarafshon milliy bog'i" da mavsumiylik 4 oy, ya'ni 120 kun davom etadi. Bunga ko'ra 1-cheklovchi omil koeffitsiyenti 0,671 ni tashkil etgan. 2-cheklovchi omilning elementlaridan biri bu "Zarafshon milliy bog'i" da faoliyat yuritish soati 8 soatni tashkil etadi. Bundan kelib chiqqan holda 2-cheklovchi omil natijasi 0,666 ni berdi. Ikkala cheklovchi omillar hisob kitoblariga asoslanib, u haqiqiy turistlarni qabul qilish sig'imini (RCC) hisoblash uchun asosiy ko'rsatkich sifatida ishlatilishi mumkin. RCCni hisoblash 1-jadvalda ko'rsatilganidek, ma'lum turizm faoliyati uchun maydonga (gektar) asoslanadi. 5-jadvalda yuqorida tavsiflangan tenglamalar yordamida barcha hisob-kitoblar jamlangan. Hisoblash natijasi – RCC hisobi, bu ma'lum turistik faoliyat uchun har bir hududga tashrif buyurishi mumkin bo'lgan sayyohlarning (odamlarning) maksimal sonini aks ettiruvchi raqamdir.

5-jadval: "Zarafshon milliy bog'i" ning yil davomida turistlarni qabul qilishining sig'imi

Xizmat turi	Sayr qilish va manzaralarni tomosha qilish
Ekoturizm uchun ajratilgan maydon (m2)	3524000
Faoliyat uchun standart maydon (m2)	1000
Aylanish koeffitsiyenti	2,66
1- cheklovchi omil (Lf1)	0,671
2- cheklovchi omil (Lf2)	0,666
Turistlarni qabul qilishning asosiy sig'imi (kishi/kun)	3524
Turistlarni qabul qilishning potentsial sig'imi (kishi/kun)	9373
Turistlarni qabul qilishning haqiqiy sig'imi (kishi/kun)	4189
Turistlarni qabul qilishning haqiqiy sig'imi (kishi/yil)	1026314



5-jadval ma'lumotlariga ko'ra "Zarafshon milliy bog'i" da rekreatsiya bo'limi maydoni – 352,4 gektarni (3524000 m²) tashkil etadi. Bu hududda ekoturizm marshrutlari tashkil etilgan. Biz yuqoridagi formulalarga asoslanib, bog'ning turistlarni qabul qilishning asosiy sig'imi 1 kunda 3524 kishini, potensial sig'im 9373 kishini, haqiqiy sig'im 1 kunda 4189 kishini, 1 yildagi haqiqiy sig'im 1026314 tani tashkil etar ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu RCC atrof-muhit unga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan umumiy turistik yuk ko'tarish qobiliyatini izohlaydigan haqiqiy misoldir. RCC – bu turistik faoliyatning ma'lum bir hududiga kiradigan barcha tashrif buyuruvchilar uchun ajratilgan raqam. Shunday qilib, bu raqamga aholi, savdogarlar, turizm bilan bog'liq odamlar, shuningdek, ushbu hududlarga kiritilgan barcha odamlar kiradi.

Ekoturizm maskanlarining turistlarni qabul qilish sig'imini aniqlash orqali tartibga solish hududda ekotizimga putur yetkazish, uning sifatining pasayishini, ekologik muhitning jozibadorligining yomonlashuvini hamda estetik qiymatini pasayishining oldini olishga va shu orqali ularning iqtisodiy qiymatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mowforth, M. Munt, I. Tourism and sustainability; Development and new tourism in the third world, Routledge, London.
2. S.A.Faiz, R.I.Komalasari "The assessment of tourism carrying capacity in Lombok Island" IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 592 (2020) 012002
3. <https://en.wikipedia.org>
4. Abduraxmanova A. Sayohat xarajatlari usulidan foydalanib "Zarafshon milliy bog'i" potensialini iqtisodiy baholash. Economics and Innovative Technologies, 2022
5. Abduraxmanova A. Ekoturizm klasterining nazariy asoslarini Delphi usulidan foydalanib tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 2022
6. Axrorov F.B. Abduraxmanova A. Ekoturizm klasterlarini rivojlantirish orqali sohani rivojlantirish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector. 2021 174 b
7. Ibragimov G', Murtazaev O, Rakhmonov D. Klaster tizimining qishloq xo'jaligi samaradorligiga ta'siri//Agroiqtisodiyot. –Toshkent, 2020. –№1. –20–23 b.
8. Ibragimov G.A., Janibekov F.B., Nazarova M.S., Khurramov A.M., Tursunov O.M. The role of agricultural clusters in increasing the efficiency of Agriculture //Colloquium-journal: Economics, Earth sciences, Agricultural Sciences. –№14 (66), 2020. Warszawa, Polska. –p. 6-9. ISSN 2520-6990
9. Mamasoliyev S.A., Ibragimov G'.A., Murtazaev O, Ganiev I.M., Mariusz Maciejczak. Production capacity and financial results of an enterprise from the grain industry in Uzbekistan.//ANNALS of The Polish Association of Agricultural and Agribusiness Economists, 2013. ISSN 1508-3535. Volume 15/5-11–15 pp.
10. Porter M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>
11. Tursunov O., Ibragimov G', Roles of investment and service system sector in agriculture//Вісник ХНАУ: Серія Економічні науки. –ХНАУ, Харків, Україна, 2013. –№3. –с 203-215.
12. Murtazaev O., Ibragimov G'. The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019-5170) Issue 400. Pages 6
13. Saydullayev A. (2023). GREEN ECONOMY: IS IT A PATH TO SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH FOR UZBEKISTAN?. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 15, 129-137.
14. Saydullayev A. (2023). EKOTIZIM XIZMATLARINI IQTISODIY BAHOLASH USULLARINING QIYOSIY TAHLILI. Евразийский журнал академических исследований, 3(6), 22-32.
15. Urozaliyev E., Xujamov B., imitation methods help businesses acquire a competitive edge. The Journal of Economics, Finance and Innovation. 2023. 682-689.
16. Пардаев Ш. (2022). ТОВАР-МОДДИЙ РЕСУРСЛАР ҲАРАКАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАРКЕТИНГ ЛОГИСТИКАСИНING ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(2), 116–122
17. Mamayunusovna P. O., & Ulugbek o'g'li T. O. (2023). POVERTY ALLEVIATION IN THE COUNTRY THROUGH ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 38–44. R
18. Ozodbek T., & Zumira N. (2023). UZBEKISTAN: CHOOSING GREEN FUTURE. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 232–239.



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.